

## MAKTABGACHA YOSHDAGI NOGIRONLIGI BOR BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Nazarova Dildora Asatovna*

*Oriental universiteti professori v.b.*

*Rasulova Zaxro Ravshanbek qizi*

*Oriental Universiteti talabasi*

*Annotatsiya.* Maqolada inklyuziv ta'limga jalb etilgan maktabgacha yoshdagi alohida e'tiborga muhtoj bolalarning rivojlanishi, ta'limiy ehtiyojlari va uchraydigan qiyinchiliklari tahlil qilingan. Amaliy tavsiyalar va intervensiyalar keltirilgan.

*Abstract:* The article analyzes the development, educational needs, and challenges of preschool children with special needs involved in inclusive education. Practical recommendations and interventions are provided.

*Аннотация.* В статье анализируются развитие, образовательные потребности и трудности детей дошкольного возраста с особыми потребностями, вовлечённых в инклюзивное образование. Даны практические рекомендации и интервенции.

*Kalit so'zlar:* Inklyuziv ta'lim, maktabgacha yosh, alohida e'tiborga muhtoj bolalar, maxsus ta'limiy ehtiyojlar, intervensiyalar.

*Key words:* Inclusive education, preschool, children with special needs, special educational needs, interventions.

*Ключевые слова:* Инклюзивное образование, дошкольный возраст, дети с особыми потребностями, специальные образовательные потребности, интервенции.

Maktabgacha yosh inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo'lib, bolaning aqliy, jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy salohiyati aynan shu davrda shakllanadi. Shu sababli, ushbu davrda ta'lim-tarbiya

jarayonini to'g'ri tashkil qilish bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun doirasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Qonunning asosiy maqsadlaridan biri – alohida ehtiyojga ega bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga teng huquqli jalb qilinishi, ular uchun maxsus ta'limiy sharoitlar yaratish va ularni jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllantirishdir.

Nogironligi bo'lgan bolalar jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning psixologik rivojlanishi va ta'lim olishi maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlash esa yanada ko'proq diqqat, individual yondashuv va maxsus strategiyalarni talab qiladi. Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan samarali yondashuvlar va intervensiyalar tahlil qilinadi.

Nogiron bolalar rivojlanish jarayonida turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu qiyinchiliklar ularning jismoniy, aqliy va hissiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Psixologik rivojlanishning asosiy tamoyillari barcha bolalar uchun bir xil bo'lsa-da, nogiron bolalar uchun bu jarayonlarda qo'shimcha yondashuv va qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi nogironligi bor bolalar ruhiy rivojlanishi jihatdan turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi:

**1. Rivojlanishda sekinlik:** Jismoniy yoki ruhiy cheklovlar tufayli ayrim qobiliyatlar va ko'nikmalar boshqa yoshdoshlarga qaraganda sekin shakllanishi mumkin.

**2. Emotsional sezuvchanlik:** Bunday bolalar qo'llab-quvvatlash va e'tiborga ko'proq muhtoj bo'ladi.

**3. Muloqotda qiyinchiliklar:** Harakatlanish yoki nutqdagi cheklovlar muloqot jarayonida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

**4. Motivatsiyaning pastligi:** Qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi natijasida motivatsiya kamayishi ehtimoli mavjud.

Nogironligi bor bolalar bilan ishlashda quyidagi prinsiplarga amal qilish zarur:

**1. Inklyuziya:** Bolaning jamoada o‘zini teng his qilishi uchun uning imkoniyatlarini inklyuziv muhitda namoyon qilish juda muhim. Bu bolalarning o‘z-o‘ziga ishonchini oshiradi va ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lishlarini ta’minlaydi ([J. Case-Smith, 2013](#)).

**2. Individual yondashuv:** Har bir bolaning ixtisoslashtirilgan ehtiyojlarini aniqlash va shu asosda o‘quv rejalarini ishlab chiqish bolaning jamiyatdagi roli va rivojlanishini yaxshilaydi ([M. Block & Timothy D. Davis, 1996](#)).

**3. Ota-onalar bilan hamkorlik:** Bolaning uy muhitidagi qo‘llab-quvvatlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ota-onalarni intervensiya jarayoniga jalb qilish bolaning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi ([A. Kaiser & M. Roberts, 2013](#)).

Nogironligi bor bolalar bilan ishlashda quyidagi metodikalar samarali hisoblanadi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi uchun maxsus intervensiyalar qo‘llanilishi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ijobiy natijalarni berishi mumkin. Bu intervensiyalar ko‘p hollarda bolaning atrofidagi jamoa a’zolari bilan hamkorlik qilishni o‘z ichiga oladi ([J. Case-Smith, 2013](#)).

**1. O‘yinga asoslangan yondashuvlar:** O‘yin jarayonida bolalarga individual maqsadlarni amalga oshirish imkoni beriladi. Bu yondashuv bolalarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi ([M. Block & Timothy D. Davis, 1996](#)). O‘yinga asoslangan yondashuvlar nogironligi bo‘lgan bolalarga ularning maqsadlari va

qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanish imkoniyatlarini berishda samarali ekani ta'kidlangan. O'yin jarayonida bolalar o'ziga kerakli ko'nikmalarni aniqlab, ularni mustaqil ravishda rivojlantirishga harakat qilishadi ([M. Block & Timothy D. Davis, 1996](#)).

**2. Jamoaviy hamkorlik:** Pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislardan iborat jamoaviy yondashuv bolaning ijtimoiy qobiliyatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi ([J. Hundert & B. Hopkins, 1992](#)). Nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda jamoa a'zolarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv maktabgacha muassasalarda pedagoglar va psixologlar tomonidan amalga oshirilgan hamkorlik bolalarning ijtimoiy hamkorlik qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi ([J. Hundert & B. Hopkins, 1992](#)).

**3. Terapiyalar:** Musiqa, san'at va sensorli terapiyalar bolaning emotsional holatini yaxshilash va rivojlantirishga yordam beradi. Ular bolaning stress darajasini pasaytiradi va ijtimoiy munosabatlarini yaxshilaydi ([K. English, H. Goldstein, & K. Shafer, 1997](#)).

**4. Ota-onalarni nogiron bolalarning ta'lim jarayoniga jalb qilish** orqali bolaning til qobiliyatlari rivojlanishida sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan. Bu jarayonda ota-onalarning faol ishtiroki bolalar uchun qo'shimcha motivatsiya manbai bo'ladi ([A. Kaiser & M. Roberts, 2013](#)).

**5. Nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy munosabatlari** va do'stlik qobiliyatini rivojlantirishda yordamchi texnologiyalar va dasturlar katta rol o'ynaydi. Jumladan, hamkorlik asosida o'tkaziladigan o'quv dasturlari bolalarning o'zaro muloqotini yaxshilaydi ([K. English, H. Goldstein, & K. Shafer, 1997](#)).

**6. Inklyuziv ta'limda bolalarga alohida yondashuv** asosida yordam berish muhim. Bu jarayonda bolalarga qulay sharoit yaratish, jamoadagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan strategiyalar qo'llaniladi ([D. Sainato & P. Strain, 1993](#)).

Nogironligi bo'lgan bolalar bilan islash amaliyotimizda yuqoridagi yondashuv va yo'l hamda vositalarni joriy qilishimiz asosida quyidagi natijalarga erishish imkoniga ega bo'lmoqdamiz:

- ✓ Bolalarning ijtimoiy va muloqot ko'nikmalari yaxshilanib bormoqda.
- ✓ Ota-onalarning faol ishtiroki bolalarning ruhiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.
- ✓ Maktabgacha yoshdagi bolalarga maxsus intervensiyalar ularning yoshdoshlari bilan tenglashish imkonini berdi

### **XULOSA**

Maktabgacha yoshdagi nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda inklyuziya, individual yondashuv va ota-onalarning qo'llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishda muhim qadam bo'ladi. Maxsus intervensiya va pedagogik metodikalarni yanada keng joriy etish bolalarning hayot sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha yoshdagi nogironligi bor bolalar bilan ishlashda psixologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Bu bolalar individual yondashuvni, sabr-toqat va mehr-muhabbatni talab qiladi. Ularning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va o'z-o'zini anglash jarayonini qo'llab-quvvatlash zarur. O'qituvchilar va ota-onalar hamkorligi muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
2. UNESCO. (2021). Inclusive Early Childhood Education: Theory and Practice.
3. Vigotskiy, L.S. (1978). Мышление и речь.
4. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). Inklyuziv ta'lim bo'yicha asosiy tamoyillar.